



USMON AZIMNING "AZIZIM" SHE'RINING BADIY TAHLILI

G.Abdurasulova

Annottatsiya: Ushbu maqola sòz orqali kishiga badiiy ta'sir qiluvchi,sof tuyg'ular va sara satrlar bilan xalq qalbiga kirib borgan yetuk ijodkor Usmon Azimning "Azizim"she'ri tahlil ostiga olingan .

Kalit so'zlar: Zamonaviy o'zbek she'riyati,Usmon Azim,lirik qahramon ,nido ,tashbex,tashxis,tazod,tasvir, moddiyat,uslub,xarakter.

Usmon Azim she'riyatga o'zining o'tli nafasi ,o'tkir qalami,tizginsiz tuyg'ulari ila kirib kelgan ijodkordir.Uning fikrlari teran ,tuyg'ulari xalqchil "Inson qalbining quvonch-u qayg'usini ,ezgulik va hayot mazmunini Usmon Azimdek teran ifoda etgan shoir adabiyot bo'stonida kamdan -kam topiladi".

Toshlarnida cil -chil etguvchi otashin xis -tuyg'ular ijodkorni qalam tutmaslikka ,qalbida isyon qilgan tuyg'ularini oq qog'ozga muhrlamaslikka qo'ymaydi.Shu tuyg'ular isyoni o'laroq shoir elda aziz, she'riyat gulshanida sayroqi bulbul.Usmon Azim she'riyatda muhabbat mavzusida ko'p va xo'p yozgan qalamkash .Uning nafaqat muhabbat haqidagi balki barcha mavzuda yozilgan asarlari takrorlanmas ifodalarga ega .Buning sababini esa u ishqni ,muhabbatni qalbiga singdirib ,uqtirib olganligida deyish mumkin.Bu xususda adabiyotshunos olim Ibrohim G'ofurov shunday fikrlarni beradi: "She'r yozadiganlar ko'p,ammo sevishta qodir ,ko'nglini ishq ishg'ol qilgan shoirlar juda kam".U.Azim mana shunday ijodkorlardan .U.Azim she'riyatiga ko'p munosabat bildirilgan bo'lsada,alohida monografik yo'nalishda ustozimiz F.Sultonqulova ilk bora o'rganmoqda.



She'rni yaratadiga dard shoir qalbida ko'pdan beri yetilib kelayotgan bo'ladi. Kechinma ana shunday yaratilishining mevasidur. Kechinmaning salmog'i va darajasi shoir nazdida ulg'ayib boradi" (Jumagul Suvonova).

Azizim devorda chiqqillar soat,
Kun-u tunni bo'ldik yigirma to'rtga,
Soat buyrug'iga qilib itoat,
O'zimni tashlayman tafti yo'q o'tga .
Sahar odamlardan yugurib, o'zib,
Ishxonaga qadar qo'yaman poyga.
Kunduz o'tiraman o'ylarim to'zib,
O'zim stolda-yu , xayolim oyda.
Kunduz latifalar aytaman yig'lab ,
Qalam qitirdatib suraman xayol.
O'ylayman kimdandir safsata tinglab,
Meni unutmoqda men sevgan ayol.
Oqshom. Xiyobonda she'r kezadi mast,
Oqshom. Meni ko'rib silkitasan qo'l.
- Do'stginam, muzladim eritgin bir past,
Do'stginam, o'lguncha yonginamda bo'l.
Besabir panjalar bir -birin izlar,
Ko'zlaring vafodan o'qiydi doston.
Oqarar, bo'zarar, lovullar yuzlar,
Falak zamin bo'lar , yer bo'lar osmon.
Azizim, izladim, qotdim,
Olovdan bermagin befoyda darslar.
Men qalbim olovin mangu yo'qotdim,
Tegramda qullar yo mansabdor shaxslar.
Xayr , ko'rishguncha, xayr dilbandim,



Yolg'iz so'ylagaysan sevgingni oyga.

Uxlamog'im kerak .Vujudim manim

Tongda ko'chalarda qilguvsi poyga.

Shoirni jamiyatda keng ildiz otib borayotgan mehrsizlik,pulning izidan quvish va qalblarning muzlab borishi qattiq tashvishlantiradi.Yuqorida keltirilgan she'rda shoirning lirik qahramoni mehr izlaydi.Lirik qahramon hayot tashvishlari iskanjasidan otilib chiqib,o'quvchiga nido bilan murojaat qiladi:"Azizim devorda chiqqilar soat,kun-u tunni bo'ldik yigirma to'rtga".

Vaqt hukmiga bo'ysunib ,24 soat hayot tashvishlari-moddiyat deya boshqa samimiy ,insoniy tuyg'ularining e'tiborsiz qolayotganidan iztirobda. Go'yo qahramon uchun o'zining hayoti otashin tuyg'ular :mehr ,oqibat,diydor kabilardan bebahra qolayotgandek. Shu tuyg'ular yetishmasligi tufayli hayoti o'tli emas ,tafti yo'q "Soat buyrug'iga qilib itoat,o'zimni tashlayman tafti yo'q o'tga ".

Usmon Azim she'rni insonning hayot tasviri bilan boshlaydi. Tasvir esa badiiylik libosiga o'rab o'quvchiga taqdim etiladi.Albatta ,badiiylik inson tasviri bor joyda hamisha bo'ladi yoki inson tasviri bor joyda badiiylik yordamga keladi.Bu borada taniqli adabiyotshunos ,yozuvchi I.Sulton "Inson tasviri yo'q joyda badiiy adabiyot yo'q" degan go'zal fikrlarni beradi. Usmon Azim lirik qahramonni she'r ruhiga mos holda tasvirlagan.She'rda lirik qahramon o'z "men"ini saqlay olgan (garchi menidan kechmoqchi bo'lsada.)She'rda lirik qahramonning o'rnini haqida U.To'ychiyev shunday deydi: "Lirik qahramon subyektivlik saltanati shohidir". Usmon Azimning lirik qahramoni bir xil hayot tarzidan zerikkan ,sahardan turib ,yugurib ,shoshib ,go'yo poyga qilib ishxonaga boradi : "Sahar - odamlardan yugurib,o'zib ishxonaga qadar qo'yaman poya".

Ishxonaga borganida esa xayoli parishon ,garchi o'zi stulda o'tirsada,xayoli oyda .Qahramon o'zining holatiga endi achinadi ham.Latifa insonni aslida kuldirish uchun,madaniy hordiq berish uchun aytiladi.yaxshi saviyaga ega latifalar insonni



chin dildan yayratib kuldiradi. Lekin lirik qahramon holati shu darajaga birib yetganki,xatto latifa ham uni kuldira olmaydi,aksincha u yig'laydi:

"Kunduz latifalar aytaman yig'lab ,qalam qitirdatib suraman xayol ". Qahramon xayol surishni davom etadi: qalamini qitirlagancha xayolga cho'madi;moddiyat ,ish ,tashvish deya sevgan ayoliga e'tibor bera olmayapdi u.Sevgan esa suxbat istaydi,kimlardandir safsata tinglab uni unutyapdi.Bu lirik qahramonda og'ir bir holat paydo qilmoqda:

O'ylayman kimdandir safsata tinglab ,

Meni unutmogda, men sevgan ayol.

She'4ning keyingi misralari oqshom tasvirlari bilan boshlanadi. Qahramonning xayolida kechayotgan o'ylari go'yo bir she'rga aylanganu xiyobonda kezib yuribdi .Ayni damda kirik qahramon do'stiga duch bo'ladi va unga iltijo qiladi:

Oqshom .Meni ko'rib silkitasan qo'l,

Do'stginam ,muzladim eritgin bir pas.

Do'stginam ,o'lguncha yonginamda bo'l.

Usmon Azim keyingi misralarda go'zal bir o'xshatish qo'llaydi.Albatta,bu jarayonni shu holda shu holda tasvirlash uchun faaat U. AZIM bo'lishi kerak . Shoirning so'zga mohirligi shunday o'shatishlarni ixcham tasvirlay olishidadir:

Besabir panjalar bir -birin izlar,

Ko'zlaring vafodan o'qiydi doston.

Shoir uzoq vaqt ko'rishmagan insonlarning bir -birlariga qo'llarini cho'zgancho talpinishlarini ,ularning mehr-u vafolari ko'zlarida balqishlarini ,shu



ikki misra orqali go'zal ifodalay olgan. Kirik qahramonning diydordagi holati ko'zlaridan yuzlariga chiqib boradi .

Oqarar ,bo'zarar ,lovullar yuzlar,

Falak zamin bo'lar ,yer bo'lar osmon.

Keyingi misralarda qahramonning ruhiy holati yanada og'irlashadi. U o'zidan diydor taftini, mehr iliqligini izladi. Topa olmagach butkul "qotdi". Suxbatlar quruq gapday tuyuldi unga . Endi u qalbining olovini ,taftini manguga ,buthn umrga yo'qotdim deb o'ylaydi. Uning uchun bu dunyo qullar yo mansabdor shaxslardan iborat. Va bu holat uning xarakteriga singib ketgan . Qahramonning ruhiy holati borib-borib xarakterga aylanib borishi xususida I. Sultonning "Adabiyot xarakterlar yaratish san'ati" ,degan fikrlarini dalil qilib olishimiz mumkin .

Azizim yarim tun izladim ,qotdim,

Olovdan bermagin befoyda darslar.

Men qalbim olovin mangu yo'qotdim,

Tegramda qullar yo mansabdor shaxslar.

Lirik qahramon endi taqdirga tan beradi va so'ggi qarorga keladi . Dilbandiga qarab, hech bir tuyg'usiz, hech bir xissiz holda xayrlashuv so'zlarini aytadi . uyda uni kuta- kuta uxlab qolgan farzandiga uni tinglay olmasligini va bunga vaqti yo'qilgini ,sevgisinida, mehrinida tushlarida oyga so'ylashini sovuqqonlik bilan aytadi .

Xayr. Ko'rishguncha. Xayr dilbandim,

Yolg'iz so'ylagaysan sevgingni oyga.

O'zining ruhiy holatidan kelib chiqib ,endi uxlashi kerakligini ,ertaga sahardan turib uning vujudi yana ko'chalardan" poyga "qilajagini aytib, fikrini yakunlaydi.



Uxlamog'im kerak vujudim manim,

Tongda ko'chalardan qilguvchi poyga

Uskon Azim ushbu she'rda ilgari surgan qismatiga singdira olgan. Va shu orqali she'rning tasir kuchini yanada oshirishni ta'minlagan. Taniqli o'zbek yozuvchisi O'tkir Hoshimov "Har qanday muhim g'oya ham inson qismatiga aylanmasa, quruq gap bo'lib qolaveradi" degan fikri yuqorida keltirilgan fikrlarimiz tasdig'idir. Ushbu she'rda kun-u tun falak -zamin ,yer-osmon, erish -muzlash, mansabdor shaxs va qullar juftliklari orqali tazod san'ati shakllantirilgan. "She'r kezadi mast" birikmasi orqali tashxis san'atini, "qalbim olovi" birikmasi orqali esa tashbex san'atini qo'llagan. Ikki o'rinda "Azizim" so'zi orqali nidoni kiritgan.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Usmon Azim ushbu she'ri orqali bugungi jamiyatning achchiq haqiqatini ochib bergan desak, meningcha, adashmagan bo'lamiz.